<i>Адилова Солияхон</i>	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar .....	1954
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi</i>	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues .....	1958
<i>Yusupova Nargiza Abdulxafizovna</i>	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
<i>Бекмуратова Умида Аманбаевна</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
<i>Namozova Nargiza Husniddin qizi</i>	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
<i>Rakhmonova Diyora Utkir's daughter</i>	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
<i>Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich</i>	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari .....	1993
<i>Usmanova Sevara Akmalovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
<i>Istamova Dilnoza Norboyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish .....	2012
<i>Turaxujayeva Madina Norpulatovna</i>	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri .....	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa .....	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun .....	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati .....	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihagini amalga oshirishning o'ziga xosligi .....	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari .....	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari .....	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari .....	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash .....	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari .....	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
<i>Ogina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari .....	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari .....	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati .....	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi .....	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish .....	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar .....	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish .....	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli .....	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati .....	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi .....	2134
<b>Tashpulatov Farxad Alisherovich</b>	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
<b>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</b>	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
<b>Negmatova Sanobar Qarshiboyevna</b>	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish .....	2149
<b>Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich</b>	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli .....	2155
<b>Nishonov Dilshod Shamsidinovich</b>	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi .....	2162
<b>Djurakulova Adolat Xolmuratovna</b>	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language .....	2165
<b>Babayeva Komila Rishatovna</b>	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
<b>Buharbayev Muxtar Yusupovich</b>	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar .....	2172
<b>Do’schanova Nafosat Norimonovna</b>	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari .....	2176
<b>Fayzullayeva Feruza Raxmatovna</b>	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	2179
<b>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</b>	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
<b>Jumanazarova Guljahon</b>	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
<b>Kimsanboyeva Ruksoraxon Ziyodbek qizi</b>	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari .....	2190
<b>Norjon Jamilova Abduxoliq qizi</b>	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
<b>Shamsiyeva M. R.</b>	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari .....	2196
<b>Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi</b>	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки .....	2200
<b>Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)</b>	



# MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA SUZISH MASHG'ULOTLARI ORQALI JISMONIY RIVOJLANISH VA FUNKSIONAL TAYYORGARLIK KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH METODIKASI

Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich

Termiz davlat universiteti  
Sport boshqaruvi kafedrası v.b Dotsenti PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va funksional tayyorgarligini oshirishda suzish mashg'ulotlarining pedagogik hamda metodik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida suzish mashg'ulotlarini rejalashtirish va tashkil etishga doir metodik yondashuv ishlab chiqilib, uning o'quvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, shuningdek yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari suzish mashg'ulotlarini maqsadli tashkil etish maktab yoshidagi o'quvchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** suzish mashg'ulotlari, maktab yoshidagi o'quvchilar, jismoniy rivojlanish, funksional tayyorgarlik, metodika, jismoniy tarbiya.

**Abstract:** The article examines the pedagogical and methodological potential of swimming training in improving the physical development and functional fitness of school-aged students. The study develops a methodology for planning and organizing swimming lessons and analyzes their impact on physical development indicators, as well as on the functioning of the cardiovascular and respiratory systems. The findings demonstrate that the purposeful organization of swimming training is an effective means of enhancing functional fitness in school-aged students.

**Key words:** swimming training, school-aged students, physical development, functional fitness, methodology, physical education.

**Аннотация:** В статье рассматриваются педагогические и методические возможности занятий плаванием в повышении уровня физического развития и функциональной подготовленности учащихся школьного возраста. В ходе исследования разработана методика планирования и организации занятий плаванием, а также проанализировано её влияние на показатели физического развития, а также на функционирование сердечно-сосудистой и дыхательной систем школьников. Результаты исследования подтверждают, что целенаправленная организация занятий плаванием является эффективным средством повышения функциональной подготовленности учащихся школьного возраста.

**Ключевые слова:** занятия плаванием, школьники, физическое развитие, функциональная подготовленность, методика, физическое воспитание.

## KIRISH

Hozirgi kunda maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va funksional tayyorgarligini ta'minlash jismoniy tarbiya tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining jadallashuvi, o'quv yuklamalarining ortishi hamda kundalik harakat faolligining kamayishi o'quvchilar organizmining funksional imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holat yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatining yetarli darajada rivojlanmasligiga, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Maktab jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy vositalar ko'pincha o'quvchilarning yoshga xos fiziologik xususiyatlari va funksional ehtiyojlarini to'liq qamrab olmaydi. Shu bois jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlikni kompleks ravishda oshirishga qaratilgan samarali vositalarni jismoniy tarbiya jarayoniga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday vositalar orasida suzish mashg'ulotlari o'zining

yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Suzish mashg'ulotlari suv muhitining o'ziga xos xususiyatlari sababli organizmga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Suv qarshiligi mushaklar faoliyatini muvozanatli rivojlantirishga yordam beradi, tana vaznining suvda yengillashuvi esa tayanch-harakat apparatiga tushadigan ortiqcha yuklamani kamaytiradi. Shu bilan birga, suzish mashqlari yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining funksional imkoniyatlarini oshirib, organizmning umumiy moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, suzish mashg'ulotlaridan maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida asosan sog'lomlashtiruvchi vosita sifatida foydalaniladi. Biroq suzish mashg'ulotlarini jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini maqsadli oshirishga yo'naltirilgan metodika asosida tashkil etish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish, ularning intensivligi va hajmini yoshga moslashtirish hamda funksional tizimlar rivojiga ta'sirini baholash bilan bog'liq metodik jihatlar ilmiy asoslashni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ushbu muammoni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, suzish mashg'ulotlarining jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik, ya'ni yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimlarining ish qobiliyati va umumiy ishchanlik nafaqat sport natijalarining asosi, balki sog'lom o'sish, dars jarayonidagi faollik va uzoq muddatli salomatlikning "tayanch mexanizmi" sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tavsiyalarda 5–17 yoshdagi bolalar va o'smirlar uchun kuniga o'rtacha kamida 60 daqiqa o'rta va yuqori intensivlikdagi jismoniy faollik zarurligi qayd etilib, ushbu yosh davrida harakat hajmining oshishi qo'shimcha sog'lomlashtiruvchi samara berishi ham ko'rsatiladi. Sport mashg'ulotlari nazariyasida funksional tayyorgarlikni oshirish jarayoni "yuklama–moslashuv–tiklanish" zanjiri orqali boshqarilishi, yuklama hajmi va intensivligi hamda ularning nisbatlari o'smir organizmida kechadigan moslashuv jarayonlarini belgilashi ta'kidlanadi, shu bois metodik yondashuvlarda bosqichma-bosqichlik, individualizatsiya, tiklanishning yetariligi va nazorat ko'rsatkichlarining muntazamligi yurak urishi dinamikasi, ish qobiliyati testlari va chidamlilik indikatorlari asosiy tamoyillar sifatida qaraladi.

Ushbu qarashlar sport tayyorgarligi qurilishining "maxsus prinsiplar"i orqali izohlanib, ayniqsa chidamlilikka yo'naltirilgan siklik sport turlarida, jumladan suzishda, yuklama tuzilishini puxta rejalashtirish zarurligini asoslab beradi. Suzishning maktab yoshidagi bolalar organizmiga ta'siri alohida e'tiborga loyiq bo'lib, suv muhitida harakat vaqtida tanaga tushadigan zarba yuklamasining nisbatan pastligi, nafas olishning ritmik boshqarilishi, ko'p mushak guruhlarining bir vaqtda faol ishlashi hamda aerob quvvatga bo'lgan talabning yuqoriligi uni jismoniy rivojlanish va kardiorespirator tayyorgarlikni oshirish uchun qulay vosita sifatida namoyon etadi. So'nggi yillarda chop etilgan tizimli sharh va meta-tahlillarda suzish mashg'ulotlarining kardiorespirator fitnesga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etilgan bo'lsa-da, natijalarning mashg'ulot dasturining davomiyligi, intensivligi, ishtirokchilarning yoshi va bazaviy tayyorgarlik darajasiga kuchli darajada bog'liqligi ham alohida ta'kidlanadi, ya'ni ushbu sohada "hamma uchun bir xil retsept" mavjud emas. Empirik tadqiqotlar orasida uzoq muddatli ta'sirni ochib beradigan ishlardan biri sifatida prepubertat yoshdagi o'g'il bolalarda uch yil davomida olib borilgan suzish mashg'ulotlarining kardiorespirator fitnes va ayrim somatik ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi tahlil qilingan bo'lib, bunda CRF bahosini aniqlashda 20 metrli shuttle-run testi natijalari hamda undan hisoblangan VO<sub>2</sub>max kabi indikatorlardan foydalanilgan. Bunday yondashuv maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida nazorat testlarini standartlashtirish va natijalarni funksional tayyorgarlik bilan bog'liq holda talqin qilish imkonini beradi.

Maktab yoshi doirasida suzishni sog'lomlashtiruvchi-interventsion formatda qo'llashga oid tadqiqotlar ham uchrab, ularda butun o'quv yili davomida amalga oshirilgan rekreatsion suzish intervensiyalarining ortiqcha vazn va semizlikka ega bolalar hamda o'smirlarda fitnes darajasi va kardiometabolik xavf ko'rsatkichlariga ta'siri baholangan, bu esa metodika ishlab chiqishda mashg'ulotlar chastotasi, davomiyligi va nazorat indikatorlarini maktab jadvaliga moslashtirish masalasining dolzarbligini ko'rsatadi. Suzish mashg'ulotlarini amaliy tashkil etish bo'yicha rus tilidagi o'quv-uslubiy manbalarda texnika elementlarini o'rgatish ketma-ketligi, mashg'ulot tuzilmasi, start va burilishlar, masofa bo'yicha yuklama taqsimoti, xavfsizlik va pedagogik nazorat masalalari tizimli yoritilib, maktab yoshida metodika "sportchilarni tayyorlash" va "o'quvchini sog'lomlashtirish" chegarasida shakllanishi sababli texnikani o'rgatish bilan bir qatorda umumiy va maxsus chidamlilikni oshirishni uyg'unlashtirish zarurligi qayd etiladi. Shuningdek, sport suzishida funksional tayyorgarlik alohida yo'nalish sifatida ko'rib chiqilib, ayrim tadqiqotlarda suzuvchilarning funksional tayyorgarligini rejalashtirish, tayyorgarlik davrlari, yuklama bosqichlari va nazorat sinovlari hamda ularning samaradorligi tahlil qilinadi, bu manbalar maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda mashg'ulotlarning bosqichma-bosqich murakkablashuvi, nazorat test-



lari bilan uzviy bog'lanishi va ortiqcha yuklamaning oldini olish uchun tiklanish mezonlari, jumladan subyektiv charchoq va puls tiklanishining muntazam kuzatilishi zarurligini ko'rsatadi.

Nafas olish tizimi bilan bog'liq yo'nalishda esa suzishning bolalarda o'pka funksiyasi indikatorlariga ta'siri meta-tahliliy tadqiqotlarda ko'rib chiqilib, xususan astmaga ega bolalarda suzish va nafas mashqlari bilan bog'liq intervensiyalar baholangan bo'lsa-da, mazkur ishda klinik guruhlar asosiy obyekt bo'lmagan holda, bunday manbalar suzishda nafas ritmi va ventilyatsiyani boshqarishning funksional tayyorgarlikka ta'sir mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Umuman olganda, adabiyotlarda suzish mashg'ulotlarining kardiorespirator fitnes va umumiy jismoniy tayyorgarlik komponentlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ko'p bor ta'kidlangan bo'lsa-da, maktab sharoitiga mos, aniq yuklama parametrlari chastota–davomiylik–intensivlik asosida belgilangan, texnika o'rgatish bilan funksional ko'rsatkichlarni bir paketda rivojlantirishga yo'naltirilgan hamda sodda va ishonchli monitoring tizimi testlar, puls tiklanishi va funksional sinamalar bilan mustahkamlangan metodik model yetarli darajada standartlashtirilmagan.

Demak, tanlangan mavzu doirasida suzish mashg'ulotlari orqali maktab yoshidagi bolalarda jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasini ishlab chiqish, uni nazorat indikatorlari bilan ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar bilan boyitish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari ta'sirida jismoniy rivojlanish hamda funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'zgarishini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov dizaynida tashkil etildi. Ishtirokchilar an'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib borilgan nazorat guruhi va maxsus ishlab chiqilgan suzish mashg'ulotlari metodikasi asosida mashg'ulotlar tashkil etilgan tajriba guruhiga ajratildi. Tadqiqotga umumta'lim maktabida tahsil oluvchi, tibbiy ko'rikdan o'tgan va suzish mashg'ulotlariga ruxsat etilgan o'quvchilar jalb qilindi. Guruhlarni shakllantirishda yosh xususiyatlari, boshlang'ich jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda sog'liq holati bo'yicha nisbiy tenglikka e'tibor qaratildi. Ishtirokchilarning ota-onalari yoki qonuniy vakillaridan belgilangan tartibda rozilik olindi. Tajriba guruhida suzish mashg'ulotlari maktab sharoitidan kelib chiqib haftalik reja asosida tashkil etildi va bosqichma-bosqich olib borildi.

Dastlabki bosqichda o'quvchilarning suv muhitiga moslashuvi ta'minlanib, xavfsizlik qoidalari, nafasni boshqarish, suvga puflash, ritmik nafas olish hamda suvda erkin harakatlanish ko'nikmalari shakllantirildi. Keyingi bosqichda texnik tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratilib, gavda holati, qo'l-oyoq harakati koordinatsiyasi, start va burilish elementlariga kirish mashqlari bajarildi hamda texnikani o'rgatishda oddiydan murakkabga tamoyiliga qat'iy amal qilindi. Yakuniy bosqichda esa funksional yo'naltirilgan mashqlar ustuvor bo'lib, mashqlarni masofa va takrorlar bo'yicha tizimlashtirish, chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan suzish seriyalarini qo'llash hamda tiklanish oralig'ini me'yorlash orqali mashg'ulot yuklamalari rejalashtirildi. Mashg'ulotlar tuzilmasi klassik shaklda olib borildi: qizish qismida quruqlikda umumrivojlantiruvchi mashqlar hamda suvda yengil tayyorlov mashqlari bajarildi, asosiy qismda texnika elementlari va masofali mashqlar uyg'unlashtirildi, yakun qismida esa yengil suzish, nafasni tiklash va cho'zilish mashqlari orqali organizmning tiklanishi ta'minlandi. Yuklama bosqichma-bosqich oshirib borildi, intensivlikni boshqarishda yurak urish chastotasi ko'rsatkichlari hamda subyektiv charchash belgilari inobatga olindi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va funksional holati bir necha yo'nalishlarda baholandi.

Jismoniy rivojlanishni aniqlashda bo'y uzunligi va tana vazni, tana massasi indeksi hamda mavjud imkoniyatdan kelib chiqib ko'krak qafasi aylanasining dinamikasi qayd etildi. Funksional tayyorgarlikni baholashda esa tinch holatdagi yurak urish chastotasi, yuklamadan keyingi yurak urish chastotasi va tiklanish tezligi, nafas tizimi indikatorlari hamda maktab sharoitiga moslashtirilgan umumiy ishchanlik testi natijalari tahlil qilindi. O'lchovlar tajriba boshida va yakunida, zaruratga ko'ra oraliq nazorat bilan, bir xil sharoitda va bir xil vaqt oralig'ida o'tkazildi. Olingan natijalar guruhlar kesimida solishtirilib, tajriba va nazorat guruhlarida o'zgarishlar dinamikasi hamda guruhlararo farqlar tahlil qilindi. Statistik ishlov berishda o'rtacha qiymatlar va tarqoqlik ko'rsatkichlari hisoblandi, taqsimot xususiyatiga ko'ra parametrik yoki noparametrik mezonlardan foydalanish ko'zda tutildi. Suzish mashg'ulotlari havzada xavfsizlik qoidalari qat'iy rioya qilingan holda, instruktor yoki murabbiy nazoratida tashkil etildi. Yuklama me'yorlari o'quvchilarning yosh xususiyatlari va individual tayyorgarligiga moslashtirildi, o'tkir noqulaylik belgilari kuzatilganda yuklama kamaytirildi yoki mashg'ulot vaqtincha to'xtatildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolada ko'rib chiqilgan yondashuv suzish mashg'ulotlarini maktab yoshidagi o'quvchilar bilan tashkil etishda jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga yo'naltirilgan metodik mezonlarni belgilab beradi. Mavjud ilmiy manbalar va amaliy kuzatuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, suzish mashg'ulotlari muntazam va maqsadli tashkil etilganda o'quvchilarning umumiy harakat faolligi oshadi, gavda

holati va harakat koordinatsiyasida ijobiy siljishlar kuzatiladi. Bunday jarayonda suzishning suv muhitiga xos xususiyatlari tufayli tayanch-harakat apparatiga ortiqcha yuklamasiz, biroq ko'plab mushak guruhlarini bir vaqtning o'zida ishga tushirgan holda mashqlanish imkoniyati yuzaga keladi.

Suzish mashg'ulotlarining funksional tayyorgarlikka ta'siri, avvalo, yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimlari faoliyatining faollashuvi bilan tavsiflanadi. Mashg'ulotlar davomida nafasni boshqarishda ritm, chuqurlik va harakat sikli bilan muvofiqlik talab etilgani sababli o'quvchilarda nafas olish jarayonini ongli boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, suzish jarayonidagi uzluksiz va ritmik harakatlar fonida umumiy ishchanlikning oshishi, charchashga chidamlilikning yaxshilanishi hamda tiklanish jarayonlarining nisbatan tezlashishi kabi holatlar qayd etiladi.

Jismoniy rivojlanish nuqtayi nazaridan suzish mashg'ulotlari maktab yoshida tabiiy o'sish jarayonlari bilan uyg'un ravishda kechadi va o'quvchilarda mushak faoliyatining muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Xususan, gavdaning to'g'ri tutishiga, yelkalar kamari va bel-mushak tizimi barqarorligiga, umumiy harakat sifati hamda harakat madaniyatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Suzish elementlarini bosqichma-bosqich o'rgatish – suvga moslashish, nafas, koordinatsiya va texnika komponentlarining izchil berilishi – o'quvchilarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini saqlab turadi hamda mashqlanish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, suzish mashg'ulotlarining samaradorligi ko'p jihatdan metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq: mashg'ulotlarning muntazamligi, yuklamaning yoshga mosligi, texnikani o'rgatishning to'g'ri ketma-ketligi va xavfsizlik talablariga rioya etilishi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois suzish mashg'ulotlarini maktab amaliyotida qo'llashda mashg'ulot mazmunini "oddiy suzdirish" bilan cheklab qo'ymasdan, uni jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlikni bosqichma-bosqich kuchaytirishga yo'naltirilgan metodik yondashuv asosida olib borish zarur.

Olingan umumiy tahlillar suzish mashg'ulotlarini maktab yoshidagi o'quvchilar bilan olib borishda ularning jismoniy rivojlanishi va funksional tayyorgarligini qo'llab-quvvatlash uchun qulay sharoit yaratishini ko'rsatadi. Bu holat, avvalo, suzishning tabiatiga xos "kompleks ta'sir" bilan izohlanadi: suv muhitida harakatlanish jarayonida ko'plab mushak guruhlarini bir vaqtda ishlaydi, harakatlar ritmik va uzluksiz bajariladi, nafas olish esa harakat sikli bilan muvofiqlashtiriladi. Shu sababli suzish mashg'ulotlari nafaqat umumiy harakat faolligini oshiradi, balki yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimlarining funksional faoliyatini ham rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama jarayonida e'tibor qaratiladigan muhim jihatlardan biri – suzishning maktab sharoitida "xavfsiz yuklama" berish imkoniyatidir. Suvda tana vazni yengillashgani sababli tayanch-harakat apparatiga tushadigan zarba yuklamasi kamayadi, bu esa o'sish davridagi o'quvchilarda mashg'ulotlarni ehtiyotkor va bosqichma-bosqich tashkil etish uchun qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, suv qarshiligi harakatni tabiiy ravishda murakkablashtiradi, ya'ni o'quvchi keskin kuch ishlatmasdan ham mushak faoliyatini faollashtiradi. Natijada jismoniy rivojlanishning muvozanatli yo'nalishda kechishi, harakat koordinatsiyasining yaxshilanishi hamda gavda holatining barqarorlashuvi metodik jihatdan mantiqan izohlanadi.

Suzish mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikning oshishi asosan nafasni boshqarish va chidamlilik komponentlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Maktab yoshida ko'pchilik o'quvchilarda nafas olish jarayoni harakat bilan yetarli darajada muvofiqlashmagan bo'ladi, suzishda esa nafasni ritmga solish, suvda chiqarish va zarur paytda olish majburiy ko'nikma sifatida shakllanadi. Shu bois suzish mashg'ulotlari fonida nafas olish madaniyatining shakllanishi, harakatni iqtisodiy bajarish va tiklanish jarayonlarining yaxshilanishi mantiqan asoslanadi. Bunda mashg'ulotning metodik tuzilmasi – qizish, asosiy qism va yakun – ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, yakun qismidagi yengil suzish, nafasni me'yorlash va cho'zilish elementlari o'quvchining charchoqni boshqarishiga hamda mashg'ulotdan keyingi holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, suzish mashg'ulotlarining samaradorligi bevosita metodik tashkil etish sifatiga bog'liq ekanini alohida ta'kidlash lozim. Agar mashg'ulotlar faqat "erkin suzdirish" ko'rinishida qolib ketsa, natijalar tasodifiy va notekis bo'lishi mumkin. Aksincha, suzishga o'rgatish bosqichlari – suvga moslashish, nafas, koordinatsiya va texnika elementlari – izchil berilganda, yuklama yoshga mos va muntazam rejalashtirilganda o'quvchilarda motivatsiya saqlanadi hamda funksional tayyorgarlik barqaror rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada taklif etilayotgan metodik yondashuvning qiymati shundaki, suzish maktab jismoniy tarbiya jarayonida "oddiy qo'shimcha mashg'ulot" sifatida emas, balki jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlikni maqsadli boshqaruvchi pedagogik vosita sifatida talqin etiladi.

Amaliy jihatdan maktablarda suzish mashg'ulotlarini joriy etishda tashkiliy omillar ham muhim hisoblanadi: havza sharoiti, xavfsizlik talablari, guruh soni, murabbiy-instruktor nazorati, gigiyena qoidalariga rioya etilishi hamda dars jadvaliga moslashuv masalalari oldindan puxta rejalashtirilishi zarur. Chunki metodika qanchalik to'g'ri bo'lmasin, xavfsizlik va tashkiliy sharoitlar yetarli darajada ta'minlanmasa, mashg'ulotlarning barqarorligi va natijadorligi pasayadi. Demak, suzish mashg'ulotlarini maktab yoshidagi o'quvchilar bilan samarali qo'llash uchun pedagogik-metodik talablar bilan bir qatorda tashkiliy shartlar ham kompleks tarzda ta'minlanishi lozim.



## XULOSA

Suzish mashg'ulotlari maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va funksional tayyorgarligini qo'llab-quvvatlashda samarali pedagogik vosita ekanligi tahlillar asosida asoslab berildi. Suzishning suv muhitiga xos sharoitlari ko'p mushak guruhlarini bir vaqtda ishga jalb etib, harakat koordinatsiyasi va harakat madaniyatini takomillashtirishga, yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimlari faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, suzish mashg'ulotlarini maktab jismoniy tarbiya jarayonida maqsadli qo'llash o'quvchilarning umumiy ishchanligi va chidamliligini oshirish, tiklanish jarayonlarini yaxshilash hamda jismoniy tayyorgarlikning barqaror rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Maqolada yoritilgan yondashuvdan kelib chiqib, suzish mashg'ulotlarini amaliyotga joriy etishda mashg'ulotlarning muntazamligi va bosqichma-bosqich tashkil etilishi, yuklamaning yoshga mosligi, texnika elementlarini izchil o'rgatish, nafasni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish hamda xavfsizlik talablariga qat'iy rioya etish muhim deb hisoblanadi. Mazkur metodik yo'nalish maktab sharoitida suzishni nafaqat sog'lomlashtiruvchi mashg'ulot sifatida, balki o'quvchilarning funksional tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladigan tizimli jismoniy tarbiya vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Health Organization. Physical activity: children and adolescents aged 5–17 years [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 15-12-2025. – URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/physical-activity>
2. Платонов В. Н. Специальные принципы построения тренировочного процесса // Наука в олимпийском спорте. – 2014. – № 2. – С. 8–19.
3. Ганзей С. С. Функциональная подготовка в спортивном плавании // Ярославский педагогический вестник. – 2009. – № 4 (61). – С. 65–71.
4. Zarzeczny R., Kuberski M., Suliga E. The Effect of Three-Year Swim Training on Cardiorespiratory Fitness and Somatic Features in Prepubertal Boys // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2022. – Vol. 19, No. 12. – Art. 7125.
5. Machado E., et al. A Recreational Swimming Intervention during the Whole School Year Improves Fitness and Cardiometabolic Risk in Children and Adolescents with Overweight and Obesity // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2022. – Vol. 19, No. 24. – Art. 17093.
6. Ferreira E. L., et al. Effects of Swimming Exercise on Cardiorespiratory Fitness: A Systematic Review // Journal of Functional Morphology and Kinesiology. – 2024. – Vol. 9, No. 3. – Art. 158.
7. Селезнёв В. В., Малышева Т. А., Кутасин А. Н. Учебно-тренировочный процесс в плавании: учебно-методическое пособие. – Нижний Новгород, 2018. – 83 с.
8. Wang C., Tian Z., Hu Y., Luo Q. Physical activity interventions for cardiopulmonary fitness in obese children and adolescents: systematic review and meta-analysis // BMC Pediatrics. – 2023. – Vol. 23. – Art. 558.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.